

**QISHLOQ TURAR –JOYLARIDA FUNKTSIONAL MUHITINI
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

Jumaqulov Nuriddin Yusufovich

Amonov Sardor Xolmurzayevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada qishloq joylarida yakka tartibdagi uylar qurilishidagi ishlarning holatini tanqidiy tahlil qilish, avvalambor loyihalashtirishda bir qator kamchiliklarni bartaraf qilish. Namunaviy loyihalar mamlakat muayyan mintaqasining tabiiy-iqlim sharoitlarini har tomonlama hisobga olmagan holda, qurilishda muhim bo‘lgan tabiiy omillar — shamolning yo‘nalishi, quyoshning yoritishi, milliy va mahalliy an‘analarning o‘ziga xosligini yaxshi o‘rganmasdan turib turarjoylarni qurilishi man etilishi.

Kalit so‘zlar: qishloq qiyofasi, tubdan yangilash, turmush daraja, namunaviy loyiha, muhandislik-kommunikatsiya, infratuzilma, ob'ekt, landshaft, me'moriy-rejaviy.

Keywords. rural appearance, cardinal renewal, standard of living, standard project, engineering and communication, infrastructure, object, landscape, architectural and planning

Klyuchevyye. сельский облик, кардинальное обновление, уровень жизни, типовой проект, инженерно-коммуникационный, инфраструктурный, объектный, ландшафтный, архитектурно-планировочный.

Kirish. Respublikamizda qishloq aholi punktlarini arxitekturaviy-rejali asosda qurish bosh rejalariga muvofiq qishloqlarda namunaviy loyihalar bo‘yicha zamonaviy yakka tartibdagi uy-joylarni keng ko‘lamda barpo etish, qishloq qiyofasini tubdan yangilash, qishloq aholisining turmush darajasi va sifatini oshirishga yo‘naltirilgan muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani jadal shakllantirish bo‘yicha maxsus Davlat dasturi ishlab chiqilgan va u izchil amalga oshirib borilmoqda. Barcha qishloq tumanlarida uy-joylarni qurish namunaviy loyihalar bo‘yicha, ijtimoiy, bozor va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi ob'ektlari bilan bog‘langan holda olib borilmoqda.

Shu bilan birga Andijon, Farg‘ona va boshqa viloyatlarning qishloq joylarida yakka tartibdagi uylar qurilishidagi ishlarning holatini tanqidiy tahlil qilish, avvalambor loyihalashtirishda bir qator kamchiliklarni namoyon qildi. Namunaviy loyihalar mamlakat muayyan mintaqasining tabiiy-iqlim sharoitlarini har tomonlama hisobga olmagan holda, qurilishda muhim bo‘lgan tabiiy omillar — shamolning yo‘nalishi, quyoshning yoritishi, milliy va mahalliy an‘analarning o‘ziga xosligini yaxshi o‘rganmasdan turib turarjoylarni qurilishi man etiladi. Loyihalarda katta konstruktiv kamchiliklar mavjud — ya'ni shiplarning yetarlicha baland bo‘lmaganligi, yashash maydoni, ayniqsa bolalar xonalarida cheklanganligi, oilaning yashashi uchun barcha zarur maishiy shart-sharoitlar yaratilmaganligi shular jumlasidandir.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, qishloqdagi namunaviy yakka tartibdagi turar joylarni loyihalashtirish sifatini tubdan oshirish asosida qishloq aholisining uy-joy sharoitlarini yanada yaxshilash, imorat soluvchilar uchun zarur qulayliklari bilan yorug‘, keng va shinam uy-joylarni qurish, shuningdek bosh rejalarga muvofiq holda qishloq aholi punktlarini kompleks ravishda barpo etish hamda zamonaviy muhandislik kommunikatsiyalarini, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini ildam rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tomonidan talablarga javob bermaydigan sifati past qishloq uy-joylarining namunaviy loyihalari bekor qilindi hamda uylarning umumiy maydoni va xonalar balandligini oshirish, garajlar hamda hovli imoratlari qurish, hovlining xo‘jalik qismida bug‘ qozonxonasini joylashtirish va boshqalarni nazarda tutgan holda imorat soluvchi uchun zarur qulayliklarni ta‘minlaydigan, shinamligi yaxshilangan uch, to‘rt hamda besh xonali yakka tartibdagi uylarning yangi namunaviy loyihalari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Qishloq joylarida zamonaviy turarjoylarni barpo etish uchun, innovatsion loyiha takliflar ishlab chiqishda yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan va tashabbuskor yosh kadrlar bilan mustahkamlash choralari ko‘rib chiqishda kuyidagilarga e‘tibor qaratish lozim: -qishloq aholi punktlarini rivojlantirish bosh rejasidan kelib chiqqan holda, yakka tartibdagi turar joylarni qurish uchun yer massivlarini tanlab olishning aniq va ochiq-oydin tizimi yaratilishini; -qishloqda yakka tartibdagi uy-joylarni qurish yashash xonalarini oqilona rejalashtirish, quyoshning yoritishini, shamolning yo‘nalishini hisobga olish va boshqa tabiiy-iqlim omillari hamda mahalliy shartsharoitlar va xususiyatlarni nazarda tutgan holda tasdiqlangan yangi namunaviy loyihalarga qat‘iy muvofiq ravishda amalga oshirilishini; - Mamlakatimizda zamonaviy arxitektura talablariga javob beradigan qishloq joylarida ob'ektlarni va muhandislik-kommunal infratuzilma tarmoqlarini — avtomobil yo‘llari, vodoprovod, gaz, elektr tarmoqlari, telekommunikatsiya tizimlarini ildam loyihalashtirish va qurish orqali qishloq uy-joy massivlarini kompleks barpo etishni; -qishloq hududlarida uy-joylarni «batamom tayyor» holda qurishda zamonaviy mahalliy qurilish materiallaridan foydalanib, ilg‘or texnologiyalar va yangi konstruktiv yechimlarni qo‘llash asosida turar joylarning sifati oshirilishi va qiymati tushirilishini ta‘minlasin. Qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi massivlarida tashqi muhandislik va transport kommunikatsiyalari ob'ektlarini qurish. Qishloqlarda ko‘kalamzorlashtirilgan hududlar – tabiat majmuasi hududining bir qismi bo‘lib, unda quyidagilar joylashadi: park, bog‘, xiyobon, bulvar kabi sun‘iy yaratilgan bog‘-park majmualari va ob'ektlar; yuzasining 70% dan kam qismi daraxtzor va o‘simliklar bilan qoplangan turar-joy, ijtimoiyamaliy va boshqa zonalarning hududlarini tashkil etish.

Zonalashtirish - hududni rivojlantirishning shaharsozlik jihatidan rejalashtirilishida shaharsozlikning foydalanish turlarini hamda bu turlardan foydalanishdagi cheklashlarni belgilab olgan holda uning funktsional maqsadga ko‘ra bo‘linishi; Piyodalar uchun mo‘ljallangan zona – piyodalar harakatlanishi uchun mo‘ljallangan hudud, ushbu hududga xizmat ko‘rsatuvchi maxsus transportdan tashqari boshqa transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi. Avtotransport vositalarining to‘xtash joyi – turli funktsional ob'ektlarga tashrif buyurgan shaxslarga tegishli avtotransport vositalarining vaqtincha

to‘xtash joyi Avtomobillar turish joyi – avtomobillar saqlanishi yoki turishi uchun mo‘ljallangan ochiq maydonchalar. Avtomobillarni saqlash uchun mo‘ljallangan joylar soyabonlar, yengil to‘siqlar bilan o‘ralgan bokslar hamda ko‘rikdan o‘tkazish estakadalari bilan jihozlanishi mumkin. Garajlar – avtomobillar uzoq muddat saqlanishi, joylashtirilishi, ularga texnik xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan binolar. Avtomobillar turish joyi garajlar – yuvish joylari, ko‘rikdan o‘tkazish chuqurlari va estakada kabi oddiy qurilmalardan murakkabroq texnik xizmat ko‘rsatish jihozlari bo‘lmagan va avtomobillarni saqlanishi, turishi uchun mo‘ljallangan bino va inshootlar.

Qishloq aholi punktlari rivojlantirilishi uchun hudud me'moriy-rejaviy yechimlarning texnik-iqtisodiy, sanitariya-gigiyenik ko‘rsatkichlar, yoqilg‘ienergetik, suv, hududiy zaxira lar, atrof muhit holatining variantlarini taqqoslash asosida, tabiiy va boshqa sharoitlarning kelajak-dagi o‘zgarishi bo‘yicha prognozlarni, ushbu hududlardan oqilona funktsional foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda tanlanishi lozim. Qishloq hududlarini aholi punktlarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish uchun hududlarni tanlash aholining ishlash, yashash va dam olish joylarini oqilona joylashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, hududlarning tabiiy va boshqa sharoitlarini o‘rganish va tahlil qilish, variantlarning texnik iqtisodiy, sanitariya-gigiyenik va me'moriyrejaviy ko‘rsatkichlarini taqqoslash asosida amalga oshirish zarur.

Yangidan qurilayotgan sanoat korxonalari mehnatkashlarini joylashtirish uchun hudud tanlash ushbu korxonalar uchun hudud tanlash bilan bir vaqtda amalga oshirish zarur. Qishloq joylarda foydali qazilmalari mavjud maydonlarda imorat qurish uchun yer uchastkalarini ajratib berilishi davlat tog‘-kon nazorat organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Binolar, inshootlar va kommunikatsiyalarni joylashtirish quyidagi hollarda ruxsat etilmaydi:

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Ruziboboyev, A. (2023). REQUIREMENTS AND THEIR SOLUTIONS FOR THE DESIGN OF UNIVERSITY SCHOOLS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 463-466.

2. Ruziboboyev, A. (2025). UCHQIZIL SUV OMBORI ATROFIDA BOG ‘-PARKLAR VA DAM Olish MASKANLARINI BARPO ETISH–EKOTURIZM VA SHAHARSOZLIKNING YANGI YO ‘NALISHI. *Latin American journal of education*, 5(7), 479-483.

3.Azamat o‘g, R. Z. A. (2025). TERMIZ SHAHRI LANDSHAFTI VA EKOLOGIYASINI YAXSHILASHNING INNOVATSION YO ‘LLARI. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 2(11), 66-69.

4.Azamat o‘g, R. Z. A., & Yusufovich, J. N. (2025). KO ‘KALAMZORLASHTIRISH ORQALI TERMIZ SHAHRIGA KELADIGAN SHAMOL VA CHANG-TO ‘ZONLAR YO ‘LINI TO ‘SISH USULLARI LOYIHA TAKLIFLAR. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(11), 136-139.

10-Iyul, 2026-yil

5.Azamat o'g, R. Z. A. (2025). TERMIZ SHAHRIDA BOG '-PARKLAR VA HIYOBONLARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA LOYIHA TAKLIFLAR. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(11), 132-135.

6.Azamat o'g, R. Z. A. Old Termez in Historical Sources (Xix-early XX Centuries). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(12), 1507-1513.

7.Nazarov, B., Alikulov, S., Ochildiev, O., Khudoykulov, R., Roziboboyev, A., & Togayaliyev, S. Study of Physical and Mechanical Properties of Manure Collected on Open Soil Surfaces.